

FRANS ROZENTAL QUR'ONDA "ILM" TUSHUNCHASINI TAHLIL QILGAN OLIM

Murodova Dilrabo Shomurodovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Obidova Gulchehra Qobil qizi

Buxoro davlat universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14976289>

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab adabiyotining manbaviy-tanqidiy tadqiqotlari rivojiga salmoqli hissa qo'shgan sermahsul, malakali sharqshunos olim F. Rozental hayoti va ilmiy merosi hamda uning tadqiqotlarida salmoqli o'rin egallagan islom sivilizatsiyasi va madaniyati masalalari tahlil qilingan. Ayniqsa olim izlanishlarida keng o'rganilgan Qur'onda "ilm" tushunchasi va uning mohiyati tahlil qilinadi. Rozental asarlaridagi "ilm" atamasining ma'no ko'lami, ijtimoiy, diniy va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liqligi, Qur'on oyatlari orqali bilim va o'rganish jarayonining ilohiy buyruq sifatidagi ahamiyati, bilimning inson ma'naviy rivojlanishidagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sharqshunos olim, Islom sivilizatsiyasi, Islom falsafasi, ilm, bilim, tadqiqot, qadriyat, tarix.

FRANCES ROSENTHAL, A SCIENTIST WHO ANALYZED THE CONCEPT OF
"KNOWLEDGE" IN THE QUR'AN

Abstract. This article analyzes the life and scientific legacy of the prolific and qualified orientalist F. Rosenthal, who made a significant contribution to the development of source-critical studies of Arabic literature, as well as the issues of Islamic civilization and culture, which took an important place in his research. The concept of "science" and its essence are analyzed in the Qur'an, which is especially widely studied in scholarly research. The scope of meaning of the term "science" in Rosenthal's works, its connection with social, religious and moral values, the importance of the process of knowledge and learning through the verses of the Qur'an as a divine command, and the role of knowledge in human spiritual development are analyzed.

Key words: Oriental scholar, Islamic civilization, Islamic philosophy, science, knowledge, research, value, history.

ФРЭНСИС РОЗЕНТАЛЬ, УЧЕНЫЙ, КОТОРЫЙ ПРОАНАЛИЗИРОВАЛ
КОНЦЕПЦИЮ «НАУКА» В КОРАНЕ

Аннотация. В статье анализируется жизнь и научное наследие Ф. Розенталя, плодовитого и искусного востоковеда, внесшего значительный вклад в развитие источниковедческих исследований арабской литературы, а также вопросы исламской цивилизации и культуры, занимавшие значительное место в его исследованиях. Понятие

«знание» и его сущность анализируются в Коране, который широко изучался, особенно в научных исследованиях. Анализируется объем значения термина «наука» в трудах Розенталя, его связь с социальными, религиозными и моральными ценностями, значение процесса познания и обучения как божественного повеления через аяты Корана, а также роль знаний в духовном развитии человека.

Ключевые слова: *востоковед, исламская цивилизация, исламская философия, наука, знание, исследование, ценность, история.*

Kirish

Bugungi kunda O'zbekistonda islom falsafasining shakllanish va rivojlanish jarayonlarini tadqiq etish, islom dinining tinch-osoyshta hayotga, boshqa xalqlarga hurmat, mehr-oqibat ko'rsatib yashashga da'vat etadigan asl insonparvarlik mohiyatini har tomonlama o'rganish va targ'ib etishga katta ahamiyat berilmoqda. Chunki, "dunyodagi ayrim kuchlar islomga qarshi kayfiyatni kuchaytirgan holda, islom dinini terrorizm mafkurasi bilan bog'lashga urinayotganini ming afsus bilan qayd etishga to'g'ri keladi. Bu omil islom olamini yanada jipslashshga chorlayotganligi ham uning mazmun-mohiyatini, falsafiy asosini chuqurroq o'rganishni talab etadi [1,457].

Islom falsafasini konseptual asoslarini chuqur o'rganish, falsafiy mohiyatini teran tahlil qilish turli adashishlar, qarama-qarshiliklar va tushunmovchiliklarni oldini olishga xizmat qiladi.

Islom dini va uning muqaddas manbasi bo'lgan Qur'onda musulmonlar doim ilm olishga buyurilgan. Ilm insoniyatning rivojlanishi va dunyoqarashining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Qur'onda ilm tushunchasi, o'z navbatida, diniy ta'limot va insoniyatning axloqiy-madaniy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bir qator olimlar, jumladan, F. Rozental Qur'onda ilm va uning ijtimoiy-diniy ahamiyatini chuqur tahlil qilgan.

Frans Rozental 1914 - yil 31 – avgustda un sotuvchi Kurt Rozental va Elza Rozentalning (qizlik ismi Kirshteyn) yahudiy oilasida tug'ilgan. 1932 yilda u Berlin universitetiga o'qishga kirdi va u yerda qadimgi sharq tillari va sivilizatsiyalarini o'rgandi. Rozentalning o'qituvchilari orasida Karl Bekker, Richard Valzer ^(ingliz tili) va Hans Heinrich Schäder ^(nemis) bor edi. 1935-yilda "Palmira yozuvlari" - "Die Sprache der Palmyränischen Inschriften" mavzusidagi tadqiqoti uchun fan nomzodi ilmiy darajasini oldi. Turli mamlakatlarda dars bergan.

Florensiyada bir yil dars berganidan so'ng, Rozental "Iudaizm ilmi" (nemischa: *Wissenschaft des Judentums*) harakatida ishtirok etdi va Berlindagi ravvinlar seminariyasida dars berdi. 1938-yilda u oromiyshunoslik tarixiga oid asarini tugatdi, buning uchun Germaniya Sharq jamiyati (nemischa: *Deutsche Gesellschaft Morgenländische*)

mukofotiga sazovor bo'ldi. Rozental asli yahudiy bo'lgani uchun mukofotni olmadi, lekin Shederling tashabbusi bilan u maxsus quyma oltin medal bilan taqdirlandi.

1938-yil dekabrda, Rozental Germaniyani tark etdi va shved dinlar tarixchisi Henrik Nybergning taklifiga binoan Shvetsiyaga jo'nadi.

1939-yil aprel oyida u Angliyaga ko'chib o'tdi va 1940-yilda Ogayo shtatining *Cincinnati* shahridagi Hebrew Union kollejida ishlashga taklifnoma olib, Qo'shma Shtatlarga ketdi. 1943 - yilda Rozental AQSh fuqaroligini oldi. Ikkinchi jahon urushi paytida u Vashingtondagi Strategik xizmatlar idorasi uchun hujjatlarni arab tilidan tarjima qilgan. 1946-yilda Yaqin Sharq tadqiqotlari bo'yicha Guggenxaym stipendiyasini oldi. Urushdan keyin u akademik o'qishga qaytdi, avval "Ibroniya Ittifoqi" kollejida, 1948-yilda Pensilvaniya universitetida professor bo'lib ishladi. 1956-yilda u Yel universitetida semit tillari professori (inglizcha: Lui M. Rabinowitz semit tillari professori) etib tayinlandi. 1967-yilda ushbu universitetning eng yuqori ilmiy unvoni - Stirling professori, 1985- yilda esa faxriy professor unvoniga sazovor bo'ldi. U Amerika Sharq jamiyati prezidenti edi.

Rozental turmush qurmagan va uning oilasining ko'pchiligi, shu jumladan katta akasi Gyunter ham o'lim lagerlarida vafot etgan.

Professor Rozental Amerika Qo'shma Shtatlarida arab adabiyotining manba-tanqidiy tadqiqotlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan sarmahsul va yetuk olim edi. 1952-yilda u «Musulmon tarixshunosligi tarixi»ni nashr etdi, bu ulkan mavzuni birinchi tadqiq qilgan. Rozental islom sivilizatsiyasi, jumladan, musulmon erkinlik tushunchasi, islomdagi klassik me'ros, islomdagi o'z joniga qasd qilish haqida ko'p yozgan. Shuningdek, u o'rta asr arab tarixchisi At-Tabariy tarixidan 3 jildlik insholar, ikki jildlik tarjimalarni nashr ettirdi. Rozental o'rta asrlar islomdagi bilim fenomenini o'rganishga bag'ishlangan "Bilimning g'alabasi: O'rta asrlardagi islomda bilim tushunchasi" asarining muallifi. U o'zining ilmiy izlanishlarida Qur'ondagi ilm tushunchasining nazariy jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlarga asoslangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Maqolada arab adabiyotining manbaviy-tanqidiy tadqiqotlari rivojiga salmoqli hissa qo'shgan sharqshunos olim F. Rozentalning asarlarida ilm tushunchasi va uning Qur'ondagi talqini yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning tarixiylik tamoyili, xolislik, qiyosiy-mantiqiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Frans Rozental 1914 - yil 31 – avgustda un sotuvchi Kurt Rozental va Elza Rozentalning oilasida dunyoga kelgan. 1932-yilda u Berlin universitetiga o'qishga kirib, sharq tillari va sivilizatsiyalarini o'rgandi. Ayniqsa ustozlari Karl Bekker, Richard Valzer hamda Xans Geynrix Shayderlardan saboq oldgan. 1935-yilda Palmira yozuvlariga bag'ishlangan tadqiqoti uchun doktorlik ilmiy darajasini qo'lga kiritadi.

Yevropaning qator mamlakatlari, jumladan Germaniya, Shvetsiya, Angliya qizg'in ilmiy izlanishlar olib borib, 1940-yilda AQSHga ko'chib o'tdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Vashingtondagi maxsus davlat tashkilotlari uchun arab tili tarjimoni sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Professor Rozental Amerika Qo'shma Shtatlarida arab adabiyotining manba-tanqidiy tadqiqotlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan sermahsul va yetuk olim edi. 1952-yilda birinchilardan bo'lib, "Musulmon tarixshunosligi tarixi" ni tadqiq qilgan. Rozental islom sivilizatsiyasi tadqiqotchisi sifatida o'rta asr arab tarixchisi At-Tabariy tarixidan 3 jildlik insholar, ikki jildlik tarjimalarni nashr ettirdi. Tadqiqotlari natijasida o'rta asrlar islomidagi bilim fenomenini o'rganishga bag'ishlangan "Bilimning g'alabasi: O'rta asrlardagi islomda bilim tushunchasi" asarini yaratdi. Olim tilshunoslik metodlariga asoslangan holda arab dunyosining eng taniqli asarlarini nemis, ingliz, rus va turk tillariga tarjima qilgan. U Qur'ondagi ilm tushunchasini til va matnning kontekstiga ko'ra o'rganadi. Ilmni tahlil qilishda matn tarjimasiga alohida e'tibor qaratadi.

Al-Buxoriy, Imom G'azzoliy ta'limotlarini o'rganib, ularning asarlari asosida o'z izlanishlarini davom ettiradi. Ayniqsa hadislar va ularning islom olamidagi o'rni, jamiyatning ma'naviy-axloqiy darajisini ta'minlashdagi ahamiyatini ushbu manbalar orqali tarjima ishlari bilan asoslab berishga harakat qilgan [4, 268]. Rozentalning fikricha, Qur'onda ilm nafaqat har qanday ma'lumot yoki bilim sifatida ko'rsatilmagan, balki ulkan ma'naviy va axloqiy qiymatga ega tushuncha sifatida paydo bo'lgan. Ilmning tasavvuri o'zining xilma-xil qatlamlari, metodologiyasi va ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra keng qamrovli diniy, axloqiy va ilmiy jihatlarini bir-biridan ajratib ko'rsatadi. Bundan tashqari, ilmning birinchi navbatda axloqiy o'zgarishlarni amalga oshiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [2, 55].

F. Rozental, shuningdek, Qur'onda ilmning insoniyatning ma'naviy taraqqiyoti uchun qanday ahamiyat kasb etishini ko'rsatgan. Insonlarga ilmni faqatgina dunyoqarashini o'zgartirish, balki uni to'g'ri yo'lga boshqarish, odil va ma'naviy ahloqli hayot kechirishda ko'rsatma beradi. Qur'ondagi "Ilm" faqat ma'lumotlar bilan bog'lanmaydi, balki u insonni axloqiy jihatdan yuqori darajaga olib chiqadigan, uning hayotini ma'naviy jihatdan to'ldiradigan ilm sifatida qoraladi [3, 220].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, F. Rozental Qur'onda ilm tushunchasini tahlil qilishda bir qancha muhim jihatlarni aniqlagan. Uning ishlarida ilm faqatgina ma'lumotlar bilan cheklanmay, balki ijtimoiy, axloqiy va ilmiy jihatlarni o'z ichiga olgan kuchli bir tushuncha sifatida ifodalanadi.

Rozentalning Qur'ondagi ilm tushunchasiga oid tahlillari, ilm-fanning diniy va ijtimoiy ahamiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi, shuningdek, ilmning haqiqiy maqsadlarini anglashga yordam beradi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Abdullaev A. Islom ma'rifati va hozirgi zamon. –Toshkent. 2017.
3. Islom ensiklopediyasi. - Toshkent. 2020.
4. Раузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания средневековом исламе. – М.: Наука, 1978.